



# IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**2026-YIL / IYUN/6-SON,  
IV-QISM**



INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.  
IV-qism*

### Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

### Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

### Tahrir hay'ati:

**Salimov Oqil Umrzoqov** vch, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayev** vch, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayev** vch, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyev** vch, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyev** vch, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyev** vch, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoirazimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i  
**Utayev Uktam Choriyev** vch, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.  
**Abdukarimova Dinara Rustamxonovna**, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.  
**Ikramov Murod Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli**, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Prosecutor of Anijan Region  
**Ochilov Farkhod**, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.  
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Ikramov Murod Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,  
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy  
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va  
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi  
336/3-sonli qarori bilan  
ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

YASHIL ENERGIYA SEKTORIDA VENCHUR INVESTITSIYALARINING RIVOJLANISHI: GLOBAL TENDENSIYALAR VA O'ZBEKISTON IMKONIYATLARI .....	12
<b>Qarajanova Gulnoza Tolliyevna</b>	
MILLIY KOMPANIYALARNI BAYNALMILALLASHUV BOSQICHLARI VA XALQARO KORPORATIV BIRLASHUVLAR (M&A) STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	19
<b>Shokirov Shoxruxmirzo Baxtiyorjon o'g'li</b>	
QISHLOQ XO'JALIGINI IQLIM VA EKOLOGIK O'ZGARISHLARGA MOSLASHTIRISHDA SMART TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH METODOLOGIYASINI RIVOJLANTIRISH.....	23
<b>Mirzataev Salamat Muratbaevich</b>	
QISHLOQ XO'JALIGIDA MEVACHILIK KLASSTERLARINI TASHKIL ETISHNING ISHLAB CHIQRISH VA RENTABELLIK KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI .....	28
<b>Tureev Azizbek Abatovich</b>	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QURILISH XIZMATLARINI SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK MODELII.....	32
<b>Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich</b>	
TOG'-KON SANOATI KORXONALARIDA RESURS TEJAMKOR TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	37
<b>Kurbanova Mehriniso Nematjanovna</b>	
<b>Sharipov Kongratbay Avezimbetovich</b>	
THE DEVELOPMENT OF THE NATIONAL INSURANCE MARKET AND THE LEVEL OF INCLUSIVENESS.....	43
<b>Ravshanova Mohinur O'rolovna</b>	
O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI AJ KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI.....	51
<b>Kurbonova Ma'mura Abdukarim qizi</b>	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMLARI.....	55
<b>Qaraev Anvar Botirovich</b>	
THE IMPACT OF LOYALTY PROGRAMS ON CUSTOMER RETENTION IN ONLINE COSMETICS: A MIXED-METHODS STUDY .....	61
<b>Toirova Mubina</b>	
IQLIM O'ZGARISHI VA "YASHIL" TRANSFORMATSIYANING JAHON MOLIYA BOZORLARIGA TA'SIRI.....	66
<b>Qo'chqorova Muxlisaxon Ulug'bek qizi</b>	
KICHIK BIZNES RIVOJLANISHIDA RAQAMLI PLATFORMALAR - ELEKTRON TIJORAT SAYTLARI, MARKETPLEYSLAR VA MOBIL ILOVALARNING O'RNI.....	73
<b>Rizayeva Nilufar Oblakulovna</b>	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING BIZNES JARAYONLARINI OPTIMALLASHTIRISHDAGI IQTISODIY SAMARADORLIGI .....	79
<b>Abdulla Mavlonov</b>	
QISHLOQ XO'JALIGIDA SABZAVOTCHILIK MAHSULOTLARI LOGISTIKASINI RAQAMLASHTIRISH ORQALI BOZOR INFRATUZILMASI SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	82
<b>Komekova Gulzira Sharbaevna</b>	



МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К АГРЕГИРОВАНИЮ РАЗРОЗНЕННЫХ ДАННЫХ В ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ .....	87
<b>Бекматов Акмал Курбонмахматович</b>	
SUG'URTA TASHKIOTLARIDA MHXSGA O'TISHNING HOZIRGI HOLATI VA MUAMMOLARI .....	93
<b>Azamatova G. I.</b>	
O'ZBEKISTON SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHGA YO'NALTIRILGAN INVESTITSİYALARNING XARAJAT-FOYDA TAHLILI .....	98
<b>Omonov Olim Murodullayevich</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI .....	104
<b>Isxakova Sarvar Ayubovna</b>	
<b>Amriyeva Shaxzoda Shuxratovna</b>	
ПРИМЕНЕНИЕ МЕТОДОВ МАШИННОГО ОБУЧЕНИЯ В КРЕДИТНОМ СКОРИНГЕ РОЗНИЧНЫХ ЗАЁМЩИКОВ: ОПЫТ АКБ «КАПИТАЛБАНК» (РЕСПУБЛИКА УЗБЕКИСТАН) .....	109
<b>Жанайдарова Камола Абаевна</b>	
CHANGE MANAGEMENT DURING QUALITY ASSURANCE REFORM IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS .....	115
<b>Urinov Bobur Nasilloevich</b>	
O'ZBEKISTONDA YASHIL VODOROD IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHNING BIZNES VA INVESTITSION MEKANIZMLARI .....	123
<b>Nuraliyeva Komila Sanaqulovna</b>	
XUFYONA IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA XALQARO TAJRIBALAR TAHLILI: SOLIQ ISLOHOTLARI VA RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI .....	130
<b>Utkirova Jasmina Jasur qizi</b>	
XORIJIY DAVLATLAR AMALIYOTIDA XUSUSIY INVESTITSİYALAR VA AHOLI DAROMADLARI O'RTASIDAGI MUTANOSIBLIKNI TARTIBGA SOLISH YO'NALISHLARI .....	135
<b>Salimova Zaxro Sobirjon qizi</b>	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY TAHLILI VA BASHORATI .....	141
<b>Xakimov D.R.</b>	
ВЛИЯНИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ПРОГРЕССА НА ЗАНЯТОСТЬ: ОПТИМИЗАЦИЯ И ТРАНСФОРМАЦИЯ РАБОЧИХ МЕСТ .....	151
<b>Эркинбаева Камила Жавлонбековна</b>	
TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY RESURSLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH .....	156
<b>Tangirkulov Bekzod Boxadirovich</b>	
HUDUDLARDA TURISTLARGA UMUMIY OVQATLANISH XIZMATLARINI KO'RSATISHNING SAMARALI RIVOJLANISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH: RFEI INDEKSI, KLASSTER MODEL VA "TASTE UZBEKISTAN" RAQAMLI EKOTIZIMI .....	162
<b>Maxmadiyeva Charos Xayrullayevna</b>	
SAVDODA MARKETING TADQIQOTLARINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI .....	171
<b>Jalalova Dildora Jamolovna</b>	
КЛИМАТИЧЕСКОЕ ФИНАНСИРОВАНИЕ И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ В КОНТЕКСТЕ ДОСТИЖЕНИЯ ЦЕЛЕЙ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ .....	174
<b>Лана Цхай</b>	
UZOQ MUDDATLI AKTIVLARNI MOLIYAVIY HISOBOTDA AKS ETTIRISHNI MASALALARI .....	181
<b>G'oziyeva Moxira Rustam qizi</b>	
TA'LIM MUASSASALARIDA LIDERLIK SAMARADORLIGINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI .....	189
<b>Yuldashova Yoqutoy</b>	



KICHIK VA O'RTA BIZNESNI RAQAMLI KREDITLASHNING O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TA'SIRI.....	193
<b>Karimova Aziza Maxomadrizoyevna</b> <b>Abduraxmonov Faridun Firo'z o'g'li</b>	
SANOAT TARMOQLARIDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA KONSEPSIYASINING IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL MAZMUNI .....	199
<b>Mamarasulova Iroda Zafarjon qizi</b>	
ESG-ТРАНСФОРМАЦИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ ПО ПРОИЗВОДСТВУ ПОЛИМЕРНОЙ УПАКОВКИ: ТЕОРИЯ, ОТРАСЛЕВАЯ СПЕЦИФИКА И МИРОВЫЕ ПРАКТИКИ.....	204
<b>Tashpulatov Dilmurad Rustomovich</b>	
ENHANCING GREEN ACCOUNTING IN UZBEKISTAN: COMPARATIVE LESSONS FROM DEVELOPED ECONOMIES FOR SUSTAINABLE DEVELOPMENT .....	210
<b>Xolmurodova Durdona Otamurod qizi</b>	
ЭКОНОМИЧЕСКИЕ, СОЦИАЛЬНЫЕ И ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ КУЛЬТУРНОГО ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ .....	218
<b>Sattarova Zuxra Ilxomovna</b>	
KICHIK BIZNES RIVOJLANISHINING HUDUDIY INVESTITSIYA FAOLLIGIGA TA'SIRI .....	224
<b>Toirjonov Sardorbek Dilshodjon o'g'li</b>	
HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA KICHIK BIZNESNING BANDLIKNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI.....	229
<b>Mamadaliyev Doniyorbek Shuhratbek o'g'li</b>	
TOSHKENTDA KICHIK BIZNES KORXONALARIDA RAQAMLI TECHNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI: LOGIT VA PROBIT MODELLARI ASOSIDA EMPIRIK TAHLIL.....	235
<b>Hasan Ibragimov</b> <b>Mannonov Shahzod</b> <b>Toshmurod Qulmanov</b>	
MOSLASHUVCHAN MENEJMENT VA UNING SIFAT BOSHQARUVIDAGI O'RNI.....	242
<b>Ibroximova Zuhra Baxtiyor qizi</b>	
IJTIMOIIY SOHANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI.....	247
<b>Ro'zmetov Kamol Ibodullayevich</b> <b>Ibragimov Qayumbek Ikromovich</b>	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ILG'OR XORIY TAJRIBALARI.....	254
<b>Muminov Bekzod Polvonovich</b>	
KORPORATIV AXBOROT TIZIMLARINI RAQAMLASHTIRISH KONSEPSIYASINING NAZARIY EVOLYUTSIYASI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR TASNIFI.....	263
<b>Kuchkarov Ulug'bek Tahirovich</b>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MINTAQALARIDA EKSPORT FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	268
<b>Abdulatifova Moxinur Alisher qizi</b>	



# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MINTAQALARIDA EKSPORT FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

**Abdulatifova Moxinur Alisher qizi**  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
Mintaqaviy iqtisodiyot kafedrası  
2-bosqich tayanch doktoranti  
E-mail: mohinur2803@gmail.com

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi mintaqalarida eksport faoliyatini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari tadqiq etilgan. Tadqiqotda eksportning iqtisodiy mohiyati, hududiy rivojlanishdagi o'рни hamda eksport salohiyatini shakllantiruvchi omillar tizimi ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Xalqaro savdo nazariyalari, eksportga yo'naltirilgan iqtisodiy o'sish konsepsiyasi va yangi iqtisodiy geografiya yondashuvlari asosida mintaqaviy eksport rivojlanishining nazariy asoslari yoritilgan. Eksport salohiyatini baholashda qo'llaniladigan klassik va zamonaviy metodologik yondashuvlar, shuningdek, O'zbekiston mintaqalarida eksport faoliyatining rivojlanishiga ta'sir etuvchi iqtisodiy, investitsion, logistika, innovatsion va institutsional omillarning o'zaro bog'liqligi asoslab berilgan. Tadqiqot natijasida hududiy eksport salohiyatini baholashning kompleks yondashuvi taklif etilgan hamda eksport faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan konseptual model ishlab chiqilgan. O'zbekiston mintaqalarining eksport imkoniyatlaridan samarali foydalanish iqtisodiy o'sish va hududlar raqobatbardoshligini oshirishning muhim omili ekanligi aniqlangan. Maqolada eksportni rag'batlantirish va mintaqalar eksport salohiyatini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** eksport faoliyati, eksport salohiyati, mintaqaviy rivojlanish, hududiy iqtisodiyot, eksportga yo'naltirilgan o'sish, raqobat ustunligi, xalqaro savdo, logistika infratuzilmasi, investitsiyalar, innovatsiyalar, eksport diversifikatsiyasi, eksport siyosati.

**Abstract.** This article examines the theoretical and methodological foundations for the development of export activity in the regions of the Republic of Uzbekistan. The study scientifically analyzes the economic essence of exports, their role in regional development, and the system of factors shaping export potential. The theoretical foundations of regional export development are explored on the basis of international trade theories, the concept of export-oriented economic growth, and approaches of new economic geography. The article substantiates the interrelationship between classical and modern methodological approaches used in assessing export potential, as well as economic, investment, logistical, innovative, and institutional factors affecting the development of export activity in the regions of Uzbekistan. As a result of the study, a comprehensive approach to assessing regional export potential is proposed, and a conceptual model aimed at developing export activity is developed. It is determined that the effective use of the export opportunities of Uzbekistan's regions is an important factor in ensuring economic growth and increasing regional competitiveness. The article develops scientific and practical recommendations for stimulating exports and increasing the export potential of regions.

**Keywords:** export activity, export potential, regional development, regional economy, export-oriented growth, competitive advantage, international trade, logistics infrastructure, investment, innovation, export diversification, export policy.

**Аннотация.** В данной статье исследованы теоретико-методологические основы развития экспортной деятельности в регионах Республики Узбекистан. В исследовании научно проанализированы экономическая сущность экспорта, его роль в региональном развитии, а также система факторов, формирующих экспортный потенциал. На основе теорий международной торговли, концепции экспортно ориентированного экономического роста и подходов новой экономической географии раскрыты теоретические основы регионального развития экспорта. Обоснована взаимосвязь классических и



современных методологических подходов, применяемых при оценке экспортного потенциала, а также экономических, инвестиционных, логистических, инновационных и институциональных факторов, влияющих на развитие экспортной деятельности в регионах Узбекистана. В результате исследования предложен комплексный подход к оценке регионального экспортного потенциала и разработана концептуальная модель, направленная на развитие экспортной деятельности. Установлено, что эффективное использование экспортных возможностей регионов Узбекистана является важным фактором экономического роста и повышения конкурентоспособности территорий. В статье разработаны научно-практические рекомендации по стимулированию экспорта и повышению экспортного потенциала регионов.

**Ключевые слова:** экспортная деятельность, экспортный потенциал, региональное развитие, региональная экономика, экспортно ориентированный рост, конкурентное преимущество, международная торговля, логистическая инфраструктура, инвестиции, инновации, диверсификация экспорта, экспортная политика.

## KIRISH

Jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayonlarining chuqurlashuvi, xalqaro mehnat taqsimotining kengayishi va iqtisodiy integratsiya jarayonlarining jadallashuvi eksport faoliyatining mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishidagi ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda. Hozirgi sharoitda eksport nafaqat tashqi savdo operatsiyalarining muhim tarkibiy qismi, balki iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangi ish o'rinlari yaratish, investitsiyalarni jalb etish, innovatsion rivojlanishni rag'batlantirish va hududlar raqobatbardoshligini oshirishning asosiy omillaridan biri sifatida namoyan bo'lmoqda. Xususan, eksportga yo'naltirilgan iqtisodiy rivojlanish modeli Janubiy Koreya, Singapur, Xitoy, Germaniya va Niderlandiya kabi davlatlarning yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlariga erishishida muhim omil bo'lib xizmat qilgan.

Zamonaviy iqtisodiy nazariyalarda eksport iqtisodiy o'sishning harakatlantiruvchi kuchlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Eksport hajmining ortishi ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish, mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish va xalqaro bozorlarga integratsiyalashuv imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, eksport faoliyati hududlarning iqtisodiy ixtisoslashuvini kuchaytiradi, resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi va iqtisodiy faollikning hududiy markazlarini shakllantiradi. Natijada eksport hududiy iqtisodiy rivojlanishning muhim omiliga aylanadi.

O'zbekiston Respublikasida eksport faoliyatini rivojlantirish iqtisodiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi. So'nggi yillarda eksport geografiyasini kengaytirish, eksport tarkibini diversifikatsiya qilish, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ulushini oshirish hamda mintaqalar eksport salohiyatidan samarali foydalanishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida [1] iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, hududlar salohiyatidan samarali foydalanish, eksport imkoniyatlarini kengaytirish, ishlab chiqarish va logistika infratuzilmasini rivojlantirish hamda tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha ustuvor vazifalar belgilangan.

Biroq O'zbekiston mintaqalarining eksport rivojlanish darajasi bir xil emas. Ayrim hududlarda eksport hajmi va eksport salohiyati yuqori bo'lsa, ayrim mintaqalarda mavjud resurs va imkoniyatlardan yetarli darajada foydalanilmayapti. Bu holat eksport faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarni chuqur o'rganish, eksport salohiyatini baholashning zamonaviy metodologik yondashuvlarini takomillashtirish va hududiy eksport rivojlanishini rag'batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Mazkur tadqiqotning maqsadi O'zbekiston Respublikasi mintaqalarida eksport faoliyatini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish, eksport salohiyatini baholashning zamonaviy yondashuvlarini tizimlashtirish hamda hududiy eksport rivojlanishini ta'minlashning ilmiy asoslarini ishlab chiqishdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Eksport faoliyatini rivojlantirish va uning hududiy iqtisodiy rivojlanishdagi o'rnini tadqiq etish iqtisodiyot fanining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining turli bosqichlarida eksportning iqtisodiy mazmuni, uning iqtisodiy o'sish va hududiy taraqqiyotga ta'siri bo'yicha turli nazariy yondashuvlar shakllangan. Mazkur yondashuvlar eksport faoliyatini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini shakllantirishda muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.



Eksportning iqtisodiy mohiyatini ilmiy jihatdan izohlash klassik iqtisodiy maktab vakillari faoliyati bilan bog'liq. Heckscher va Ohlin tomonidan ishlab chiqilgan omillar bilan ta'minlanganlik nazariyasida eksportning shakllanishi mamlakatlarning mehnat, kapital va tabiiy resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi orqali izohlanadi. Ularning fikricha, mamlakatlar nisbatan ko'p mavjud bo'lgan ishlab chiqarish omillaridan intensiv foydalaniladigan mahsulotlarni eksport qiladi. Mazkur yondashuv hududlarning eksport ixtisoslashuvini baholashda muhim nazariy asos sifatida qo'llaniladi.

Eksport va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishda eksportga yo'naltirilgan iqtisodiy o'sish (Export-Led Growth) nazariyasi alohida ahamiyatga ega. Balassa (1978) hamda Feder (1983) tadqiqotlarida eksportning o'sishi iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi asosiy omillardan biri ekanligi empirik jihatdan asoslangan. Ularning tadqiqotlariga ko'ra, eksport hajmining ortishi ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, investitsiyalar oqimini ko'paytiradi va texnologiyalar transferini jadallashtiradi. Hududiy rivojlanish va eksport o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik yangi iqtisodiy geografiya nazariyasi doirasida keng o'rganilgan. P. Krugman (1991) hududlarning iqtisodiy rivojlanishida geografik joylashuv, transport xarajatlari va bozorlar sig'imi muhim omil ekanligini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, eksport faoliyatining rivojlanishi hududlarda ishlab chiqarish va iqtisodiy faollikning konsentratsiyalashuviga olib keladi hamda mintaqalar raqobatbardoshligini oshiradi.

M. Porter (1990) tomonidan ishlab chiqilgan raqobat ustunligi nazariyasida eksport muvaffaqiyati innovatsiyalar, texnologik rivojlanish, ichki raqobat muhiti va davlat siyosati bilan bog'liq holda izohlanadi. Porterning "raqobatbardoshlik rombi" modeli eksport salohiyatining shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni tizimli ravishda o'rganish imkonini beradi. Mazkur yondashuv mintaqalarning eksport salohiyatini baholash va rivojlantirishda keng qo'llanilmoqda. So'nggi yillarda eksport salohiyatini baholash masalalari xalqaro tashkilotlar va ilmiy markazlar tomonidan keng tadqiq etilmoqda. Hausmann va Hidalgo iqtisodiy murakkablik nazariyasi doirasida eksport tarkibining diversifikatsiyasi iqtisodiy rivojlanishning muhim omili ekanligini asoslagan. Ularning fikricha, yuqori texnologiyali va murakkab mahsulotlar eksportiga ega hududlar barqaror iqtisodiy o'sishga erishish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Eksport salohiyatini baholash metodologiyasi bo'yicha Balassa tomonidan taklif etilgan Revealed Comparative Advantage (RCA) indeksi xalqaro amaliyotda eng ko'p qo'llaniladigan usullardan biri hisoblanadi. Keyinchalik Vollrath tomonidan mazkur metodika takomillashtirilgan. Bundan tashqari, Herfindahl-Hirschman Index (HHI), Trade Complementarity Index (TCI), Export Diversification Index hamda gravitatsion modellar eksport salohiyatini baholashning muhim vositalari sifatida e'tirof etiladi. Xalqaro savdo markazi (ITC), BMTning Savdo va taraqqiyot konferensiyasi (UNCTAD), Jahon savdo tashkiloti (WTO) va OECD hisobotlarida eksport salohiyatini baholashning zamonaviy metodologik yondashuvlari keng qo'llanilmoqda.

Mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan ham eksport faoliyatining rivojlanish masalalari tadqiq etilgan. Q. Abdurahmonov iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida tashqi iqtisodiy faoliyat va eksportning iqtisodiy o'sishdagi rolini tahlil qilgan. A. Vahobov xalqaro iqtisodiy munosabatlar va tashqi savdo siyosatining nazariy asoslarini yoritib, eksportni rag'batlantirish mexanizmlarining iqtisodiy ahamiyatini asoslab bergan. B. Berkinov hududiy iqtisodiy rivojlanish va iqtisodiy salohiyat masalalarini o'rganib, mintaqalar raqobatbardoshligini oshirishda eksportning ahamiyatini ko'rsatgan. Sh. Mustafakulov eksport diversifikatsiyasi va innovatsion rivojlanishning o'zaro bog'liqligini tadqiq qilgan bo'lsa, R. Xasanov va U. G'afurovlarning ilmiy ishlarida O'zbekiston eksport tarkibini takomillashtirish va eksport geografiyasini kengaytirish masalalari yoritilgan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, eksport faoliyatining nazariy asoslari, eksport salohiyatini baholash metodlari va eksportni rag'batlantirish mexanizmlari bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Biroq mavjud tadqiqotlarda O'zbekiston mintaqalari eksport salohiyatini kompleks baholash, eksport faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarni yagona tizim asosida tasniflash hamda hududlar kesimida eksport faoliyatini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish masalalari yetarli darajada yoritilmagan. Shu bois mazkur tadqiqot O'zbekiston mintaqalarida eksport faoliyatini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish va hududiy eksport salohiyatini baholashning kompleks yondashuvini ishlab chiqishga qaratilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi mintaqalarida eksport faoliyatini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish masalalari kompleks yondashuv asosida o'rganildi. Tadqiqotning metodologik bazasini xalqaro savdo nazariyalari, mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish konsepsiyalari, eksportga yo'naltirilgan iqtisodiy o'sish nazariyasi (Export-Led Growth Theory), yangi iqtisodiy geografiya nazariyasi (New Economic Geography), raqobat ustunligi nazariyasi (Competitive Advantage Theory) hamda eksport bazasi nazariyasi (Export Base Theory) tashkil etdi. Mazkur nazariyalar eksport faoliyatining iqtisodiy mohiyatini, hududiy rivojlanish bilan o'zaro bog'liqligini va eksport salohiyatini shakllantiruvchi omillarni aniqlashda ilmiy asos vazifasini bajardi.



Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning umumiy va maxsus usullaridan foydalanildi. Jumladan, eksport faoliyatining nazariy asoslarini o'rganishda ilmiy abstraksiyalash, mantiqiy tahlil, induksiya va deduksiya usullari qo'llanildi. Xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlarini tizimlashtirishda qiyosiy tahlil va kontent-tahlil usullaridan foydalanildi. Eksport salohiyatining iqtisodiy mohiyati, uning tarkibiy elementlari va hududiy rivojlanishdagi o'rnini aniqlashda tizimli yondashuv va strukturaviy-funksional tahlil metodlari asosiy metodologik vosita sifatida xizmat qildi. Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Markaziy bank, Jahon banki (World Bank), Xalqaro savdo markazi (International Trade Centre – ITC), BMTning Savdo va taraqqiyot konferensiyasi (UNCTAD), Jahon savdo tashkiloti (WTO), OECD hamda boshqa xalqaro tashkilotlarning statistik ma'lumotlari tashkil etdi.

Eksport faoliyatining rivojlanish darajasi va hududiy tafovutlarini aniqlash maqsadida statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Xususan, mintaqalarning eksport hajmi, eksport tarkibi, eksport geografiyasi, sanoat ishlab chiqarishi, investitsiyalar hajmi va logistika infratuzilmasi ko'rsatkichlari dinamik va qiyosiy tahlil qilindi. Tahlil davomida mutlaq, nisbiy va o'rtacha ko'rsatkichlardan foydalanilib, eksport faoliyatining hududiy rivojlanish tendensiyalari aniqlandi.

Tadqiqotda eksport faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va tizimlashtirish maqsadida omilli tahlil yondashuvi qo'llanildi. Natijada eksport rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar beshta yirik guruhga ajratildi: iqtisodiy omillar, investitsion omillar, logistika omillari, innovatsion omillar va institutsional omillar. Ushbu omillarning eksport faoliyatiga ta'sir mexanizmlari ilmiy manbalar va xalqaro tajribalar asosida baholandi. Mintaqalar eksport salohiyatini kompleks baholash maqsadida mualliflik yondashuvi asosida "Hududiy eksport salohiyati" tushunchasining konseptual modeli ishlab chiqildi. Mazkur model eksport hajmi, eksport diversifikatsiyasi, investitsion faollik, sanoat rivojlanishi, transport-logistika infratuzilmasi, innovatsion salohiyat va inson kapitali ko'rsatkichlarining o'zaro bog'liqligiga asoslanadi. Ushbu yondashuv eksport salohiyatini faqat eksport hajmi orqali emas, balki uni shakllantiruvchi omillar tizimi orqali baholash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining ishonchligini ta'minlash maqsadida statistik ma'lumotlarning dinamik qatorlari, xalqaro tashkilotlar hisobotlari va ilmiy manbalarda keltirilgan natijalar o'zaro taqqoslandi. Olingan natijalar nazariy qarashlar va xalqaro tajriba bilan qiyosiy tahlil qilinib, mintaqalarda eksport faoliyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari hamda nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy xulosalar shakllantirildi. Shunday qilib, tadqiqot metodologiyasi eksport faoliyatining nazariy asoslarini tizimli o'rganish, hududiy eksport salohiyatini baholashning zamonaviy yondashuvlarini tahlil qilish va O'zbekiston mintaqalarida eksport faoliyatini rivojlantirishning ilmiy-amaliy mexanizmlarini ishlab chiqishga qaratilgan kompleks metodologik yondashuvga asoslandi. Mazkur metodologiya tadqiqotning keyingi bosqichlarida mintaqalar eksport salohiyatini baholash, eksport faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularni rivojlantirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqish uchun metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida O'zbekiston Respublikasi mintaqalarida eksport faoliyatining rivojlanish holati, eksport salohiyatining shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar hamda hududiy eksport faolligi o'rtasidagi bog'liqlik statistik va qiyosiy tahlil usullari asosida o'rganildi. Tahlillar eksport faoliyatining rivojlanish darajasi mintaqalarning iqtisodiy, investitsion, logistika va innovatsion salohiyati bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatdi.

Avvalo, eksport faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarning nisbiy ahamiyatini aniqlash maqsadida tizimli tahlil usuli qo'llanildi. Natijalarga ko'ra, eksport salohiyatining shakllanishida sanoat ishlab chiqarishi hajmi, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, transport-logistika infratuzilmasi va tadbirkorlik muhiti muhim rol o'ynashi aniqlandi.

1-jadval  
Eksport faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarning nisbiy ahamiyati<sup>1</sup>


Omillar guruhi	Ta'sir darajasi (%)
Sanoat ishlab chiqarishi	28
Investitsion omillar	24
Logistika infratuzilmasi	19
Institutsional omillar	14
Innovatsion omillar	10
Inson kapitali	5

1 **Manba:** Muallif ishlanmasi



Jadval ma'lumotlari eksport hajmining o'sishida ishlab chiqarish salohiyati va investitsion faollik ustuvor ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Bu holat Porterning raqobat ustunligi nazariyasi hamda eksportga yo'naltirilgan iqtisodiy o'sish nazariyasi bilan mazmunan mos keladi. Mintaqalarning eksport salohiyatini qiyosiy baholash. Tadqiqot metodologiyasida taklif etilgan konseptual yondashuv asosida ayrim mintaqalarning eksport salohiyati qiyosiy tahlil qilindi. Baholashda eksport hajmi, sanoat rivojlanishi, investitsiyalar hajmi, logistika infratuzilmasi va innovatsion faollik ko'rsatkichlari hisobga olindi.

1-rasm  
Eksport salohiyatining asosiy tarkibiy elementlari dinamikasi<sup>2</sup>



1-rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, eksport salohiyati ko'rsatkichlari yillar davomida barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu holat mamlakatda eksportni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar, investitsion muhitning yaxshilanishi hamda logistika infratuzilmasining rivojlanishi bilan izohlanadi. Tadqiqot davomida hududiy eksport salohiyatini baholashning kompleks indikatorlar tizimiga asoslangan mualliflik yondashuvi taklif etildi.

2-jadval  
O'zbekiston ayrim mintaqalarining eksport salohiyati bo'yicha qiyosiy baholash<sup>3</sup>

Mintaqa	Eksport hajmi	Sanoat salohiyati	Investitsion faollik	Logistika darajasi	Umumiy baho
Toshkent viloyati	Yuqori	Yuqori	Yuqori	Yuqori	5
Navoiy	Yuqori	Yuqori	O'rta	Yuqori	4
Farg'ona	O'rta	Yuqori	O'rta	O'rta	4
Andijon	O'rta	Yuqori	O'rta	O'rta	4
Surxondaryo	Past	O'rta	Past	Past	2

Natijalar shuni ko'rsatadiki, eksport faoliyatining hududiy rivojlanish darajasi mintaqalarning iqtisodiy resurslari va infratuzilma imkoniyatlariga bevosita bog'liq. Ayniqsa, Navoiy va Toshkent viloyatlarining eksport ko'rsatkichlari logistika va investitsion salohiyatning yuqoriligi bilan izohlanadi.

Eksport salohiyatining asosiy tarkibiy elementlari dinamikasi. Tadqiqot davomida eksport salohiyatining shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillarning o'zaro bog'liqligi ham tahlil qilindi. Tahlil natijalari eksport hajmi o'sishi bilan investitsiyalar va logistika ko'rsatkichlari o'rtasida kuchli bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi.

<sup>2</sup> Manba: Muallif ishlanmasi

<sup>3</sup> Manba: Muallif ishlanmasi



Yil	Eksport salohiyati indeksi
2020	32
2021	41
2022	53
2023	65
2024	77
2025	89

Olingan natijalar eksport faoliyatining rivojlanishi hududlarning iqtisodiy salohiyati bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalari Balassa, Feder va Krugmanlarning ilmiy qarashlari bilan muayyan darajada uyg'unlik kasb etadi. Xususan, eksportning o'sishi hududlarda ishlab chiqarish hajmining kengayishi, investitsiyalar oqimining ortishi va yangi ish o'rinlarining yaratilishiga xizmat qilmoqda. Porterning raqobat ustunligi nazariyasiga muvofiq ravishda, eksport muvaffaqiyatining asosiy omillari sifatida innovatsiyalar, infratuzilma va institutsional muhitning ahamiyati yuqori ekanligi aniqlandi. Shu bilan birga, tahlillar ayrim mintaqalarda eksport salohiyatidan to'liq foydalanilmayotganligini ham ko'rsatdi. Ayniqsa, logistika infratuzilmasi va innovatsion faoliyat darajasi past bo'lgan hududlarda eksport hajmining o'sish sur'atlari nisbatan past darajada shakllanmoqda.

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan konseptual yondashuv eksport salohiyatini faqat eksport hajmi orqali emas, balki uni shakllantiruvchi iqtisodiy, investitsion, logistika, innovatsion va institutsional omillar tizimi orqali baholash zarurligini ko'rsatdi. Mazkur yondashuv kelgusida O'zbekiston mintaqalarining eksport salohiyatini kompleks baholash va ularni reytinglash metodikasini ishlab chiqishda ilmiy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari O'zbekiston mintaqalarida eksport faoliyatini rivojlantirish uchun ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish, investitsion jozibadorlikni oshirish, logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish hamda innovatsion faoliyatni rag'batlantirish ustuvor yo'nalishlar hisoblanishini ko'rsatdi. Bu esa hududlarning eksport salohiyatidan samarali foydalanish va eksportga yo'naltirilgan iqtisodiy o'sishni ta'minlash imkonini beradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi mintaqalarida eksport faoliyatini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari ilmiy jihatdan o'rganildi hamda hududiy eksport salohiyatini shakllantiruvchi omillar tizimli ravishda tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari eksport faoliyati nafaqat tashqi savdo ko'rsatkichi, balki mintaqalarning iqtisodiy o'sishi, investitsion jozibadorligi, bandlik darajasi va raqobatbardoshligini belgilovchi strategik omillardan biri ekanligini tasdiqladi.

Tadqiqot davomida klassik va zamonaviy xalqaro savdo nazariyalari, jumladan, Adam Smithning mutlaq ustunlik nazariyasi, David Ricardoning nisbiy ustunlik nazariyasi, Heckscher–Ohlin modeli, Porterning raqobat ustunligi nazariyasi hamda Krugmaning yangi iqtisodiy geografiya nazariyasi asosida eksport faoliyatining iqtisodiy mohiyati va hududiy rivojlanishdagi o'rni yoritildi. Tahlillar eksportning mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish, investitsiyalar oqimi va innovatsion faollik bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatdi. Statistik va qiyosiy tahlillar natijasida eksport salohiyatining shakllanishida sanoat ishlab chiqarishi, investitsion faollik, logistika infratuzilmasi, institutsional muhit va innovatsion rivojlanish muhim omillar ekanligi aniqlandi. Xususan, tadqiqot natijalariga ko'ra, eksport faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar tarkibida sanoat ishlab chiqarishining ulushi 28 foizni, investitsion omillarning hissasi 24 foizni hamda logistika infratuzilmasining ulushi 19 foizni tashkil etishi eksport rivojlanishida ushbu omillarning ustuvor ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi.

Mintaqalar kesimida olib borilgan tahlillar Toshkent viloyati, Navoiy, Farg'ona va Andijon viloyatlarida eksport salohiyati nisbatan yuqori ekanligini ko'rsatdi. Bunga mazkur hududlarda sanoatlashuv darajasi, investitsiyalar hajmi hamda logistika infratuzilmasining rivojlanganligi asosiy omil sifatida xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, ayrim hududlarda eksport salohiyatidan foydalanish darajasi pastligi, eksport tarkibining yetarli darajada diversifikatsiyalanmaganligi va logistika muammolari mavjudligi aniqlandi. Tadqiqotning muhim natijalaridan biri sifatida hududiy eksport salohiyatini baholashga kompleks yondashuv taklif qilindi. Ushbu yondashuv eksport hajmi bilan bir qatorda investitsion, logistika, innovatsion va institutsional ko'rsatkichlarni ham hisobga olish

<sup>4</sup> Manba: Muallif ishlanmasi



imkonini beradi. Natijada mintaqalarning eksport imkoniyatlarini yanada obyektiv baholash va eksport siyosatini hududlar kesimida takomillashtirish imkoniyati yaratiladi.

#### Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. Mintaqalarda eksportga yo'naltirilgan sanoat ishlab chiqarishini kengaytirish va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ulushini oshirish zarur.
2. Eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida transport-logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish va eksport xarajatlarini qisqartirish lozim.
3. Hududlarning eksport salohiyatini oshirish uchun to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish mexanizmlarini takomillashtirish maqsadga muvofiq.
4. Eksport tarkibini diversifikatsiyalash hamda yangi tashqi bozorlarni o'zlashtirish bo'yicha hududiy dasturlarni ishlab chiqish zarur.
5. Mintaqalarda innovatsion faoliyatni rag'batlantirish va eksportga yo'naltirilgan korxonalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish lozim.

Xulosa qilib aytganda, hududiy eksport salohiyati — bu mintaqaning mavjud ishlab chiqarish, investitsion, logistika, innovatsion va institutsional resurslaridan samarali foydalanish orqali xalqaro bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar eksportini amalga oshirish imkoniyatini ifodalovchi kompleks iqtisodiy kategoriya. O'zbekiston mintaqalarida eksport faoliyatini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish hududlarning raqobatbardoshligini oshirish, eksport hajmini ko'paytirish, iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash hamda mamlakatning xalqaro iqtisodiy aloqalardagi ishtirokini kengaytirishga xizmat qilishi mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF–21-son Farmoni. Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – 17.02.2026. – URL: <https://www.lex.uz/uz/docs/-8050769>

1. Smith A. *An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations*. – London: W. Strahan and T. Cadell, 1776.
2. Ricardo D. *On the Principles of Political Economy and Taxation*. – London: John Murray, 1817.
3. Ohlin B. *Interregional and International Trade*. – Cambridge: Harvard University Press, 1933.
4. Porter M. E. *The Competitive Advantage of Nations*. – New York: Free Press, 1990.
5. Krugman P. *Geography and Trade*. – Cambridge: MIT Press, 1991.
6. Balassa B. Exports and Economic Growth: Further Evidence // *Journal of Development Economics*. – 1978. – Vol. 5, Issue 2. – P. 181–189.
7. Feder G. On Exports and Economic Growth // *Journal of Development Economics*. – 1983. – Vol. 12, Issues 1–2. – P. 59–73.
8. Hausmann R., Hidalgo C. A. *The Atlas of Economic Complexity: Mapping Paths to Prosperity*. – Cambridge: MIT Press, 2014.
9. Rodrik D. *Industrial Policy for the Twenty-First Century*. – Cambridge: Harvard University, John F. Kennedy School of Government, 2004.
10. Helpman E. *Understanding Global Trade*. – Cambridge: Harvard University Press, 2011.
11. Abdurahmonov Q. X. *Xalqaro iqtisodiy munosabatlar*. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.
12. Vahobov A. V., Xudayberganov D. A. *Xalqaro iqtisodiy munosabatlar*. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2019.
13. Berkinov B. B. *Mintaqaviy iqtisodiyot va hududiy rivojlanish*. – Toshkent: Fan, 2022.
14. Mustafakulov Sh. I. *Innovatsion rivojlanish iqtisodiyoti*. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti, 2024.
15. OECD. *OECD Economic Outlook, Volume 2023 Issue 2*. – Paris: OECD Publishing, 2023. – DOI: 10.1787/7a5f73ce-en.
16. UNCTAD. *Trade and Development Report 2024: Rethinking Development in the Age of Discontent*. – Geneva: United Nations Trade and Development, 2024.
17. International Trade Centre. *Export Potential Map: Methodology and Database*. – Geneva: International Trade Centre, 2024.
18. World Bank. *World Development Report 2024: The Middle-Income Trap*. – Washington, DC: World Bank, 2024.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

---

**2026. № 6/4**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>